

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
UNIVERSITETI FARG'ONA FILIALI**

“Kompyuter injiniring” fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

“Soliq va solqqa tortish” fanidan

REFERAT

Bajardi:

Xaydarov O

2014- Farg'ona

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi

1. Soddalashtirilgan tartibda soliq to'lashda aloxida umumbelgilangan soliqlar to'lash majburiyati.
2. Yagona soliq to'lovi.
3. Savdo va umumovqatlanish korxonlari tomonidan yagona soliq to'lovini kullashning xususiyatlari.
4. Yagona er soligi.
5. Qat'iy belgilab qo'yilgan soliqlar.
6. Aloxida turdagi soliq to'lovchilarga soliq solishning xususiyatlari.
7. Xulosa
8. Foydalanilgan adabiyotlar (internet saytlar) qonunlar farmonlar va qarorlar.

Yagona soliq to'lovi. **Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq ama-liyotiga tatbiq etilishi, uning iqtisodiy mohiyati.** Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kichik biznes sub'ektlarim soliq solish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi

Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi «Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida»gp 159-son qaroriga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar soliq solishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi.

Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilish soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtirdi, ular barcha nechta soliq turi o'rniga faqatgina bitta yagona solik bo'yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada korxona hisobchilari ning ishi birmuncha osonlashdi.

Yagona soliq to'lovi, uning to'lovchilari va to'lovchilar tarkibiga kiritish mezonlari. Mikrofirmalar va kichik korxonalarni jadal rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushi tubdan oshirish maqsadida Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi PF—3620 sonli Farmoniga muvofiq 2005 yilning 1 iyuldan boshlab Uzbekiston soliq tizimida kichik biznes sub'ektlarini bahzi toifalari uchun yagona soliq to'lovi joriy qilindi

U birlashtirilgan bo'lib, quyidagi majburiy to'lovlarini to'lash o'rniga joriy qilingan:

- > yagona soliq;
- > byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;
- > Respublika yo'l jamg'armasi;
- > Maktab tahlimini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar.

Yagona soliq to'lovi faqat kichik biznes sub'ektlari mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etiladi. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar ro'yxati 2007 yil 1 yanvardan boshlab kengaydi. Jumladan, ular tarkibiga soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz savdo ma'umiy ovqatlanish korxonalari (Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy G'azalari bundan mustasno. Ular uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 8 iyundagi «Ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralarga soliq solish tartibi-ni takomillashtirish to'g'risida»gi PQ—374-sonli qarori bilan nazarda tutilgan soliq solish tartibi saqlab qolinadi); mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritilgan bo'lgan tayyorlov va ta'minot-sotish tashkilotlari, irokorlik firmalari, komissiya shartnomasi (topshirig'i) >>yicha xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar; goliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz loyureyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun yuridik shaxslar kiritildi.

Soliqlar va majburiy to'lovlarni umumbelgilangan tartibda to'lovchilar hisoblangan xususiy amaliyot bilan shug'ullanadigan notariuslar esa soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqisiz yagona soliq to'lovini to'lashga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 ashustdagi «1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga o'zgarishlar va qo'shimchalar to'g'risida»gi PF-3305-sonli Farmoniga ko'ra 2004 yilning 1 yanvaridan boshlab kichik ishles sub'ektlari tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

- yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullashuvchilar;
- xodimlarining o'rtacha yillik soni: ishlab chiqarish tarmoqyaarida 20 kishidan; xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga qo'yilgan aloqasi bo'lmagan

tarmoqlarda 10 kishidan; ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida kishidan oshmagan mikrofirmalar;

— quyidagi tarmoqyaarning o'rtacha yillik xodimlari I oni:

engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berit va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebelg' sanoati pi qurilish materiallari sanoati 100 kishidan;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kim sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish ii qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari 50 kishidan;

fan, ilmiy xizmit ko'rsatish, transport, aloqa, xizma i ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), sando va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqariipa aloqador bo'lmagan sohalar 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Kichik biznes subhektlariga amaldagi soliq qonunchi ligiga ko'ra tatbiq etiladigan soliq imtiyozlari va prs ferentsiyalar faqat yuqoridagi sanab o'tilgan subhektlarsh taalluqli bo'ladi.

Soliq solish ob'ekti, yalpi tushum tarkibi va soliq solinadigan baza. Yagona soliq to'lovi ob'ekti (solt solinadigan aylanma) bo'lib yalpi tushum hisoblanadi.

Kuyidagilar yalpi tushum tarkibiga kiritiladi:

1) tovarlar (ishlar, xizmatlar) tso'shilgan tsiymat so lig'ini chegirgan holda (tso'shilgan tsiymat solig'ini to'lashgn o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun) sotilishidii tushgan tushum summasi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushgan tu shum deganda:

— qurilish, qurilish-montaj, tahmirlash-qurilish, iipa tushirish-sozlash, loyihalash-qidiruv va ilmiy-tadqiqsn korxonalari uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishp dan tushum summasi deganda o'z kuchlari bilan bajarilgap ishlar hajmidan kelib chiqib hisoblangan yalpi tushum;

— lizing kompaniyalari uchun mahsulot (ishlar, xizma I lar) sotilishidan tushum summasi deganda lizing bo'yicha foizli daromadlar;

— vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda no sitachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul mukofoti summasp,

— tayyorlov, tahminot-sotish tashkilotlari uchun — rsa lizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgap yalpi daromad;

— lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatpn amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun — o'yip chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan VI igan tushum tushuniladi;

2) asosiy faoliyatdan boshtsa daromadlar.

Ushbu daromad turlariga:

a) undirilgan yoki qarzdor ehtiroy etgan jarimalar, nsnyalar hamda xo'jalik shartnomalarining shartlarini buz-mplik uchun boshqa jazo turlari, shuningdek etkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha daromadlar;

b) hisobot yilida aniqlangan, o'tgan yillardagi daro-madlar;

v)mikrofirma va kichik korxonalar huzuridagi oshxopalardan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar singari ipyusita mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va eogish bilan bog'lanmagan operatsiyalardan boshqa daromadlar;

g)mikrofirma va kichik korxonaning asosiy fondlari na boshqa mol-mulkini sotishdan daromadlar;

d)kreditorlik va debitorlik qarzini qonun bilan pslgilangan tartibda hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

e) tovar-moddiy boyliklarni qo'shimcha baholashlar;

j) tekin moliyaviy yordam, shu jumladan tekinga olin!an mol-mulk;

z) boshqa operatsion daromadlar kiradi;

3) moliyaviy faoliyatdan daromadlar.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar tarkibiga quyidagi daromadlar kiritiladi:

a) olingan royalti;

b) O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida choshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulushli ishtirok etishdan olingan daromadlar, aktsiyalar bo'yicha ppshtendlar hamda mikrofirma va kichik korxonaga tegish-!i bo'lgan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar iuyicha daromadlar;

v) mol-mulkni uzoq muddatli ijara (lizing)ga berish- ian daromad (marja);

g) chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi farkdan daromadlar;

d) qimmatli qog'ozlar, shuhba korxonalar va hokazolar- la ko'yilgan mablag'larni qayta baholashlarni o'tkazishdan maromadlar;

e) moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar;

4) favtsulodda daromadlar.

Tovarlar (xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish) bepul | (^srilganda soliq solish ob'ektiga ularning qiymati ham

kiritiladi, bu qiymat ularni ishlab chiqarishga ketpsh amaldagi xarajatlardan, mol-mulk bepul berilganda mm balansda qayd etilgan qoldiq qiymatdan kelib chiqi<» belgilanadi.

Soliq kodeksining 356-moddasiga ko'ra soliq solipa digan bazani aniqlash uchun yalpi tushum summasidan qui idagilar chegirib tashlanadi:

1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

2) to'lov manbayda soliq solinadigan dividendlar ip foizlar tariqasida olingan daromadlar;

3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustam fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotgapdp (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida unish ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanganda ilgari solpq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov mam baida umumiy asoslarda soliq solinadi;

4) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daro madlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lpsh bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqpar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak,

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymatp, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgarp kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot etkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularnish ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi sum masidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar -

Shuningdek yalpi tushum:

— avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari uchun: jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzip, dizelg' yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga; benzin, dizelg' yoqilg'isi va gazning avtomobillart yoqilg'i quyish shoxobchalarining belgilangan eng yuqorp ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxp o'rtasidagi mahalliy byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lpsh farq summasiga;

— lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyagpp amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'lmagan miqdoriga;

— brokerlik tashkilotlari uchun bitim summasidan ()irjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

— vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun reali shsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda ulangan bojxona to'lovlari summasiga kamaytiriladi.

Soliq stavkalari va soliq imtiyozlari. Yagona soliq I to'lovini yuridik shaxslar mustaqil ravishda belgilangan I soliq stavkalaridan kelib chiqib hisoblaydilar. Yagona I soliq to'lovi stavkalari 2009 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda PQ— I 1024-sonli qarori bilan tasdiqtangan bo'lib, u quyidagicha tabaqalashtirilgan

3. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarda ko'zda tutilgan soliq solishning amaldagi tizimi bilan bir qatorda qo'llanadi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq korxonalarga soliq solish tizimini ixtiyoriy tanlash xuquqi beriladi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi umumdavlat soliqlari, shuningdek davlat xokimiyati maxalliy organlari tomonidan joriy etilgan maxalliy soliq va yig'imlar majmuasi to'lash o'rniga yagona soliq to'lashni ko'zda tutadi, bundan yagona soliq bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatilgan yig'imler mustasno.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan korxonalar uchun bojxona to'lovlar, davlat bojlari, litsenziya yig'implari to'plash, byudjetdan tashqari davlat fondlariga ajratmalarning, shuningdek yagona soliq bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatilgan yig'implarni to'lashning amaldagi tartibi saqlanib qoladi.

Xisob yuritishning soddalashtirilgan tizimi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasining butun hududi uchun yagonadir.

Soliq solish soddalashtirilgan tizimining amal qilishi, O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda «Kichik va xususiy tadbirkorlarni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida» gi qonunga binoan, xisob davrida xodimlarning quyidagicha eng ko'p soniga ega bo'lgan mulkchilikning barcha shaxardagi korxonalarga tadbiiq etiladi:

sanoat va qurilishda - 50 kishiga qadar;

qishloq xo'jaligida va ishlab chiqarish soxasining boshqa tarmoqlarida – 25 kishiga qadar;

fan va ilmiy xizmat ko'rsatishda – 10 kishiga qadar;

noishlab chiqarish soxasi tarmoqlarida – 10 kishiga qadar;

chakana savdoda – 5 kishiga qadar.

Xodimlarning eng ko'p soni tushunchasiga pudrat shartnomalari va fuqarolik – xuquqiy tusdagi boshqa shartnomalar bo'yicha ishlovchilar ham yuritiladi.

Aksiz solig'i solinadigan maxsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga soliq solishning soddalashtirilgan tizimi tadbiiq etilmaydi.

Nogironlar ishlovchilarning 50% dan ko'pini tashkil etadigan, soliq solishning soddalashtirilgan tizimi tadbiiq etiladigan korxonalar O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy ximoya qilish to'g'risida» gi qonunga muvofiq yagona soliqni to'lamaydi.

Yagona soliq solish ob'ektlari quyidagilar xisoblanadi:

savdo (xarid qilish, vositachilik, ulgurji sotish, ta'minot) korxonalari uchun - yalpi daromad;

xalq xo'jaligining qolgan tarmoqlari uchun yalpi tushum.

Yalpi daromad tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

tovarni xarid qilish va sotish qiymatlari o'rtasidagi farq;

moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hamda «Maxsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan maxsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bo'yicha korxonalar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risida» gi Nizomga muvofiq belgilanadigan asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan korxonalar yagona soliqni soliq solinadigan oborotga foizlarda kuyidagicha stavkalar bo'yicha to'laydi:

savdo (xarid, vositachilik, ulgurji sotish, ta'minot) korxonalari 25%;

qishloq xo'jalik korxonalari 5%;

xalq xo'jaligi boshqa tarmoqlarning korxonalari 10%

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tish uchun korxonalar ro'yxatga olingan joydagi Soliq idorasiga yil choragi boshlanishidan kamida bir oy oldin yozma ariza topshirishlari shart.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishda korxonalarda, o'sha davrda amal qilgan soliq solish tizimidan kelib chiqib, oldingi davr soliq to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi.

Korxona soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tish to'g'risidagi qarorni yoki asoslab berilgan raddiyani soliq idorasi korxona ariza bergan kundan boshlab o'n besh kun ichida taqdim etadi. Basharti soliq idorasiga tegishli ariza taqvimiy yil tugashidan ko'pi bilan 15 kun oldin berilgan bo'lsa, soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llashdan voz kechish va soliq solishning umumiy belgilangan tizimiga qaytish navbatdagi taqvimiy yil boshidan amalga oshirish mumkin.

4. Yagona er solig'i. Yagona er solig'ining joriy etilishi va ahamiyati. Uzbe-kmstonda 1999 yilda qishloq xo'jalik korxonalariga soliq solishda tub o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi 11 rezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi «Qishloq xo'jaligi I ijar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig'ini joriy pish to'g'risida»gi PF—2086-sonli Farmoniga muvofiq I⁶99 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona er solig'i joriy etildi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona er solig'ining joriy etilishi o'z navbatida ularni foydalanish solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; ekologiya solig'i (amaldan o'tkazilgan); suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; er solig'i; er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun solish mol-mulk solig'i; obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hamda boshqa mahalliy soliqlar va yig'imlarni to'lashdan ozod qildi. Shu bilan birga yagona er solig'i to'lovchilari uchun bojxona to'lovlari, davlat boji, litsenziya yig'imlari, byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, shuningdek aktsiz to'lanadigan mahsulotlarga akt solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolindi.

Uzbekistonda yagona er solig'ini joriy qilishdagi ko'zlangan maqsad qishloq xo'jalik erlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish hamda qishloq xo'jalik korxonalariga soliq solish tizimini soddalashtirishdan iboratdir.

Ushbu soliqning amaliyotga joriy etilishi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z tasarrufidagi erlardan yanada oqilona foydalanishga dahvat etadi, chunki har bir gektar er maydoni uchun undan daromad olish yoki daromad olmaslik holatidan qat'i nazar belgilangan miqdordagi soliq summasini to'lash lozim bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, soliq solish ushbu tizimi xo'jaliklar hisobchilarining soliqlarni hisoblash va to'lash borasidagi ishlarini keskin kamaytirdi hamda ularga qulayliklar yaratdi.

Yagona er solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan baza. Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va tahlil muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari yagona er solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Urmon va ovchilik xo'jaliklari hamda yuridik sham tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yagona er solig'ini to'lovchilar hisoblanmaydi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlari ishlab chiqargan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha mazkur faoliyat turidan

yagona er solig'ini to'laydilar va ular boshqa soliq solish tizimini tanlash huquqiga ega emaslar.

Yagona er solig'ini to'lovchi hisoblangan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun bojxona bojlari, davlat bojlari, litsenziya yig'implari, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalarni to'lashning amaldagi tartibi saqlanadi.

Agar yagona er solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi govar ishlab chiqaruvchilari o'zlari ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ul-lansalar, ular alohida hisob yuritishlari va boshqa faoliyat turlari bo'yicha shu toifadagi to'lovchilar uchun pmaldagi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan soliq-iarni to'lashga majburdirlar. Bunda, agar qishloq xo'jaligi govar ishlab chiqaruvchilari mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirsalar, faoliyatning boshqa turlari bo'yicha (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari bundan mustasno) ular faoliyatning mazkur turi uchun nazarda tutilgan yagona soliq to'lovi yoki umumbelgilangan tartibda soliqlar to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomoni-tsan erlar ijaraga berilganda ijaraga beruvchida ijaraga berilgan erlar bo'yicha yagona er solig'ini to'lash majbu-riyati saqlanib qoladi.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanishga yoki ijaraga berilgan er uchastkasi maydoni yagona er solig'i solish ob'ekti hisoblanadi. Soliq solinadigan er uchastkalarining normativ qiymati soliq solinadigan baza hisoblanadi. Agar normativ qiymat belgilanmagan bo'lsa, unda soliq solinadigan baza bo'lib qishloq xo'jaligi tovari ishlab chiqaruvchilarning soliq solinadigan er uchastkalari maydoni hisoblanadi.

Soliq solinadigan qishloq xo'jaligi er maydonlari, er uchastkalarining joylashishi, tuproq boniteti va er mulkining boshqa tavsiflari er kadastr mahlumotlari bo'yicha qabul qilinadi.

Soliq imtiyozlari. Soliq qonunchiligiga ko'ra **soliq solinmaydigan** er uchastkalariga quyidagi erlar kiradi:

a) qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlar;

b) ihotada daraxtzorlari egallagan erlar;

v) sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suv havzalari, sportning texnik turlari ob'ektlari va boshqa jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish komplekslari, opalar va bolalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanatoriy-kurort muassasalari va dam olti uylari, o'quv-mashq bazalari egallagan erlar;

g) yangi o'zlashtirilayotgan erlar va meliorativ holatidagi yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar shu loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlaganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga. Agar loyihada erlarni o'zlashtirish va meliorativ ishlarni amalga oshirish muddatlari ko'rsatilmagan yoki er uchastkasi bir muddatlarda topshirilgan bo'lsa, er uchastkasi uchun soliq meliorativ ishlar va yangi erlarni o'zlashtirish ishlari bajarilgan yillar uchun to'lanmaydi, lekin u 5 yildan oshmasligi kerak;

d) ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash ob'ektlari band etgan erlar;

e) yangi tut ko'chatlari ekilgan erlar, qator oralaridagi qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishi dan qathi nazar, uch yil muddatga. Shu munosabat bilan bahorda ekilgan tut ko'chatlari ekilgan yilni hisoblagan uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi, kuzda ekilgan ko'chatlar esa ularni ekishdan keyingi yildan boshlab uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi;

j) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga tega molik va o'rmon fondidagi erlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan erlari;

z) yangi barpo etilgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan fermer xo'jaliklari, davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab ikki yil muddatga;

k) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarsh a muvofiq soliq solinmaydigan boshqa erlar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga soliq dan imtiyoz belgilanganda ular soliqni ushbu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab to'lashni to'xtatadilar. Soliq imtiyozlari bekor qilingan taqdirda ular er solig'ini ushb\ huquq bekor qilingan oydan keyingi oydan boshlab to'lash ni boshlaydilar.

Soliqni hisoblash, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi. Soliq to'lovchilar yagona er solig'i summa sini belgilangan shakl bo'yicha soliq solinadigan bazaga qarab er uchastkalarining normativ qiymati hamda sr uchastkalarining maydonidan kelib chiqqan holda hisobl;i> chiqadilar.

Yagona er solig'ining hisob-kitobi er uchastkasi joy-iashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq lavrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan er uchastkalari uchun yagona er solig'i er uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab go'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan taqdirda, yagona er solig'ini to'lash er uchastkasi olib qo'yilgan oydan boshlab go'xtatiladi.

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida uzgargan, shuningdek yagona er solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq go'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona er solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari lozim bo'ladi.

Yagona er solig'ini byudjetga to'lash quyidagi muddat-larda amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1 iyuligacha — yillik soliq summa-sining 20 foizi;

hisobot yilining 1 sentyabrigacha — yillik soliq sum-masining 30 foizi;

hisobot yilining 1 dekabrigacha — soliqning qolgan summasi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari buxgal-geriya hisobida yagona er solig'i bo'yicha byudjet bilan \isob-kitobni byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritadilar.

Qishloq korxonalariga soliq solishda xorijiy davlat-lar tajribasi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrar garmoqning jadal o'sishi mamlakatda iqtisodiyotning kjsalishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida soliqtar tabaqalashti-rilgan bo'lib, o'rnatilgan soliqlar soliq solish ob'ekti-tsan yoki daromad olish darajasidan kelib chiqib byudjetga go'lanadi. Agrar sektorga mahlum bir imtiyozlar hamda maxsus soliq rejimi qo'llaniladi va ular albatta ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu xususiyat-larga fasllar almashinuvi, tabiiy ob-havo sharoitlarini misol qilish mumkin. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari to'laydigan soliqlar tarkibiga nazar tashlanganda, ularning turli mamlakatlar miqyosida soliqtar turlariga qarab tabaqalashganini ko'rish mumkin (3.2.1-jadval).

3.2.1-jadval

Ayrim rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jalik subhektlari to'laydigan asosiysoliq turlari

Soliq turlari	AQSh	Fransiya	Italiya	Buyuk Britaniya	Germaniya
Daromad solig'i	+	+	+	+	+
Korporativ soliq	+	+	+	+	+
Mol-mulk solig'i	— **	+	—	+	— **
Yer solig'i	+	+	— *	—	+

Mahalliy soliqlar (ersolig'idan tashqari)	+	+	+	+	+
QQS	—	+	+	+	+
Sotuvga soliq	+	—	—	—	—
Ijtimoiy to'lovlar	+	+	+	+	+

* Daromad solig'iga kiritilgan.

** Yer solig'iga kiritilgan.

Germaniya, Frantsiya, Italiyada qishloq xo'jalik subhsk tlari hisoblangan fermerlik kooperativlariga korporativ soliqni to'lash bo'yicha imtiyozlar berish keng tarqalpsh Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlay chiqaruvchilari to'laydigan er solig'i boshqa yuridik shaxslarga nisbatan ancha past miqdorda belgilangan.

Gollandiyada bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda mehnatga qobiliyatli aholining 4 foizigip ishlaydi. Bu davlatning hududi va aholisi Uzbekiston bilan solishtirganda bir necha barobarga kam. Tabiiy sharoiti esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish uchun anchagina noqulay. Shunga qaramasdan, ushbu mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Eksportning yillik hajmi taxminan 35 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi.

Jahonda samarali faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari AQSh davlatida mukammal shakllangan deb atash mumkin. Buning asosiy sabablari fermer xo'jaliklariga yordam dasturlarini mablag' bilan tahminlashda federal hukumat etakchilikni o'zida saqdab turganligi bilan izohlanadi. Buyuk Britaniya soliq tizimida fermer xo'jaliklariga soliq solish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mamlakatda fermerlar to'laydigan asosiy soliq turi daromad solig'i hisoblanib, u moliya yilida xo'jalikda hosil qilingan daromad yoki foydadan belgilangan shkala bo'yicha undiriladi. Daromad solig'ini undirish maqsadida fermer xo'jaliklariga beshta soliq shkalasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda er, mol-mulklarni ijaraga berishdan olingan daromadlarga soliq solish, o'rmon xo'jaliklaridan olinadigan foydaga soliq solish, asosiy faoliyatdan tashqari olingan daromad man-balariga soliq solish, ishchi xodimlar va yollanma mehnat qiluvchilarning daromadlariga soliq solish jarayonlari aks qaytariladi. Fermer xo'jaliklari uchun moliya yili 1 aprel-dan boshlanib, keyingi kalendarg' yilining 31 martida tugaydi. Foyda solig'i moliya yil yakuni bo'yicha hisob-kitob qilinadi va hisoblangan soliq summasining 50 foizini 1 yanvarda va qolgan qismini 1 iyunda byudjetga to'lab beriladi. Ya'ni bu erda soliqni byudjetga undirishda qishloq xo'jaligining mavsumiyligi hisobga olingan.

Yagona er solig'ini to'lovchilar quyidagilardir:

Qishloq xo'jaligi to'lovlari ishlab chiqaruvchilar;

Qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarning tajriba-eksperimental xo'jaliklari va tahlil muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona er solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Yagona er solig'ini to'lovchilar uchun soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga (132-modd) soliq solinmaydi birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlarga dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan er uchastkasi soliq solish obyekti. Soliq solinadigan er uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir. Qishloq xo'jaligi tovarlari

ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga yagona er solig'i to'lashdan ozod qilinadilar.

Kalendarg' yil soliq davridir.

Yagona er solig'i summasi er uchastkalarining normativ qiymati va yagona er solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib aniqlanadi.

Hisob-kitob mahalliy davlat soliq inspeksiya-siga joriy soliq davrining 1-mayigacha taqdim etiladi. To'lov quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

Hisobot yilining 1-iyuligacha- yillik soliq summasining 20%;

Hisobot yilining 1-sentyabrigacha-yillik soliq summasining 30%;

Hisobot yilining 1-dekabrigacha-soliqning qolgan summasi.

6. Alohida turdagi soliq to'lovchilarga soliq solishning xususiyatlari. Yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash xuquqisiz, o'ziga mulk xuquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ash-yoviy xuquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir. Yakka tartibdagi tadbirkor qat'iy belgilangan soliq to'lovchi hisoblanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan qatorda quydagilarni to'laydilar:

- 1) bo'xona to'lovlari;
- 2) er qahridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq-tadbirkorlik uchun suvdan foydalanilganda;
- 4) aktsiz solig'i-aktsiz to'lanadigan maxsulot ishlab chiqarilganda,
- 5) byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik, vaqtincha olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Yakka tartibdagi tadbirkor mol-mulk va er solig'ini umumbelgilangan tartibda to'laydi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va faoliyat amalga oshiriladigan joyga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

Soliqni hisoblab chiqarish solik bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kuniga qadar har oyda, soliq to'lovchi ro'yxatdan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun belgilangan soliq stavkalari ro'yxatdan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi

Xulosa

Men bu mustaqil ishda kichik korxonalarga Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinish 1998 yil 15 apreldagi «Kichik korxonalar uchun ixchamlash gan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida»gp 159-son qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliq solishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtp rilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildp Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi nomli qarori bilan tanishib chiqdim. Yana ularga solinadigan soliq stavkalari va boshqa davlatlarda qanday soliq stavkaga asosan ishlashini ham ko'rib chiqdim.

DARSLIKLAR VA O'QUV QO'LLANMALAR RO'YXATI

1. B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, B.K.Tuxliev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
2. Vahobov A.V, Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik- T.:Sharq, 2009. 448 bet.
3. Tuxliev B.K. Moliyaviy menejment.o'quv qo'llanma-T.: O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi nashriyoti , 2007 – 241 bet.
- 4.Tuxliev B.K., Alieva L.K., Aliev S.K. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi: o'quv qo'llanma- T.: TDIU., 2007 -144 bet
- 5.Tuxliev B.K., Qurbonov X.A, Bauetdinov M.J, Bijanova M. B. Davlat byudjeti: o'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2007 y.-199bet.
6. Tuxliev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A. T., To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: o'quv qo'llanma.- T.: 2007 y - 320 bet
7. Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F., CHet mamlakatlar soliq tizimi: Darslik – T.: TDIU.2007 y - 570 bet.
8. Yusupov O.A., Oybekova X.S. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani bo'yicha o'quv-uslubiy ta'lim texnologiyasi, Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyasi» . -T.: TDIU, 2006. 480-bet.
9. Yusupov O.A., Oybekova X.S. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyasi». -T.: TDIU, 2006. 245-bet.
- 10.Yutkina.G.F. Nalogi i nalogooblojeniya. Uchebnik. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2006. – 509 s.
11. Nalogi i nalogooblojenie v Rossii: uchebnik. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Delo, 2006, – 384 s.
12. Kuzmin G.V. Zemelnqy nalog: Osobennosti ischesleniya i uplatq -M: Vershina , 2006., 203 s.
13. Kochergov D.S., Ustinova Ye.Ye. Uproo'ennaya sistema nalogooblojeniya, -M.: Omega, 2006, - 185 s.
14. Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. – 3-e izd., prerab. I dop. – M.: Izd-ko-torgovaya korporatsiya “Dashkov i K”, 2005, – 314 s.
15. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi. 2005, - 544 b.
16. O'razov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish: -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2004.-336-bet.
- 17.Toshmatov Sh.A., Komilov M.M. Qo'shilgan qiymat solig'i. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2004.-184-bet.
- 18.Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003, - 247 b.
19. Yutkina.G.F. Nalogi i nalogooblojeniya. -M: INFRA-M, 2001, - 429 s

Internet saytlari

1. [htt: //www. gov. uz](http://www.gov.uz)
2. [htt: //www.Parliament. gov. uz](http://www.Parliament.gov.uz)
3. [htt: //www. edu..uz](http://www.edu.uz)
4. [htt: //www. tsue . uz](http://www.tsue.uz)
5. [htt://www.nalog. ru .](http://www.nalog.ru)
6. [htt://www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)
7. [htt://www.mf.uz](http://www.mf.uz)